JIZZAX VILOYATI ARNASOY TUMANI HOKIMI QARORI

2024 - yil 30 - yanvar 25-3-43-Q/24 Arnasoy tuman hokimligi

Arnasoy tuman hokimining 2023-yil 6-noyabrdagi 191-3-43-Q/23-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritsh to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Aholini bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonunining 9-bobi, 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida.

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2024-yil 15-yanvardagi 16/02-01/01-14-sonli xati inobatga olinsin:

2. Arnasoy tuman hokimining 2023-yil 6-noyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2024-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida”gi 191-3-43-Q/23-sonli qarorining 2-qismi b) bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

Amalda:

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 10 foiz (29 kishi);

Qaror o‘zgargandan so‘ng o‘qilishi:

b) Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lmagan yoshlar,

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 7 foiz (29 kishi).

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Arnasoy tuman hokimi v.b. **X.Alimardanov**